

Psixologik testlar kimningdir bilimini, qobiliyatini, hayotdagi vaziyatlarga munosabatini tahlil qilishda foydalaniladigan savollardan iborat. Entrepreneurial Finance Lab (EFL) esa turli optimizm, o'ziga ishonch, avtonomiya, ma'suliyatlilik kabi xarakterlardan foydalanmoqda.[4]

Psixologik usuldan foydalangan holda, EFL 1,993 ta kredit arizalarini ko'rib chiqib bunda ularning 9 % boshqa joylarda moliyalashtirilishi rad etilgan bo'lib, Perudagi eng katta 5 chi bank mijozlarni yuqori aniqlikda aniqlagan deb topildi. [5] Shuningdek, Visual DNA kognitiv xilma xillik va turg'un his tuyg'u xarakterlarini kredit riskni bog'lovchi sifatida foydalanilgan.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, ijtimoiy skoring yoki boshqacha qilib aytganda insonlarning psixologiyasini, xarakterini, xulq-atvorini o'rganish orqali kredit ajratish ko'pgina davlatlar tajribasidan samarali usul ekanligi yaqqol ko'rinmoqda. Buyuk Britaniya va Yevropa davlatlari hukumati tomonidan bu sohaga katta urg'u berilishi bejizga emas. Davlat tomonidan qo'llab quvvatlanishi va tadqiqotlar uchun imkoniyatlar yaratilishi bu sohani takomillashtirgan holda samarali moliyaviy qarorlar qabul qilgan holda, iqtisodiy barqarorlikka erishish garovidir. Shuningdek, bu tizim insonlarni yaxshi xulq-atvoriga undaydi ya'ni jamiyat uchun foydali ta'lim-tarbiya vositasi hamdir. Shu bilan birga, ijtimoiy kredit skoringidan keng foydalanish banklar kredit portfeli va rentabelligini oshirishni ta'minlaydi. Respublikamizda ham Buyuk Britaniya, AQSH, Germaniya davlatlari tajribasidan andoza olgan holda xulq-atvor omillariga asoslangan kredit ajratish tizimini takomillashtirish kelajakda mamlakat miqyosida pul-kredit tizimi barqarorligini ta'minlashga asos bo'la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://publications.europa.eu/en/publication-detail//publication/b86d7f2d-9e77-11e7-b92d-01aa75ed71a1/language-en/format-PDF/source-search>.
2. Masyutin A.A.(2015) *Credit scoring based on social network data. Business informatics.* (3(33)).
3. Klinger, B., Khwaja, A., & LaMonte, J. (2013). *Improving credit risk analysis with psychometrics in Peru*
4. McEvoy, M. J., & Chakraborty, T. (2014). *Enabling financial inclusion through alternative data*
5. Arráiz, I., Bruhn, M., & Stucchi, R. (2017). *Psychometrics as a Tool to Improve Credit Information*, S67

O'ZBEKISTONDA MEVA-SABZAVOT KLASTERLARINING TASHKIL ETILISHI

Karimova Nilufar Sadridin qizi
TDIU tayanch doktoranti

Meva-sabzavotchilik klasterlarining asosiy va umumiy maqsadi uning bajaradigan vazifasi orqali belgilanadi. Uning vazifasida esa, meva-sabzavotchilik klasterining vaziyatini batafsil ifodalaydi hamda har bir tashkiliy bosqichlarda o'z

maqsadlari va strategiyalarga erishish yo'llarini belgilab beradi. Klasterlarning maqsadlariga mos ravishda ularning tashkiliy tuzilmasi tuzilib, har bir meva-sabzavotchilik klasterini ichki imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, o'z tuzilmasini tuzadi va tuzilmadagi har bir bo'lim va tarkiblari klaster maqsadini amalga oshirishga o'z hissasini qo'shadi. Meva-sabzavotchilikni rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 15-dekabr PQ-52 sonli "Meva-sabzavotchilik sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, tarmoqda klaster va kooperatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida qarori qabul qilingan. Ushbu qarordan asosiy maqsad qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat oshirishga qaratilgan islohotlarni chuqurlashtirishda davlat siyosatini tubdan takomillashtirishga yo'naltirilgan. Chunki yiliga 21 million tonnadan ziyod meva-sabzavot mahsulotlari etishtirilmoqda. Ammo mahsulotning qariyb 80 foizdan ortig'i qayta ishlanmasdan qolmoqda [8].

Meva sabzavot klasterlarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat;

- mahsulotlar yetishtirish, tayyorlash, tashish, saqlash va qayta ishlash hamda ularni ichki va tashqi bozorlarda sotish maqsadida chakana va ulgurji savdo tizimini yo'lga qo'yish, shu jumladan xorijiy davlatlarda savdo uylarini va respublika hududlarida firma do'konlarini ochish;
- ekinlar hosildorligini oshirish maqsadida seleksiya va urug'chilik sohasida yangi texnologiyalarni, "nou-xau"larni joriy etish, innovatsion ishlanmalar yaratish va keng qo'llash;
- mahsulot yetishtirish, tayyorlash, saqlash va qayta ishlashning zamonaviy, intensiv va resurstejamkor texnologiyalarni keng joriy etish orqali samarali faoliyat yuritish;
- chuqur marketing tadqiqotlari olib borish asosida ichki va tashqi bozorda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, mahsulot yetishtirishning maqbul hajmlarini belgilash;
- ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish va mahalliy sharoitlarda ulardan keng foydalanish, klaster tizimini keng joriy etishda xorijiy ekspert va mutaxassislarni jalb qilish;
- tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanish, tovar-xomashyolarni import-eksport operatsiyalarini amalga oshirish, investitsiyalar, shu jumladan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish;

Mamlakatimiz meva-sabzavotchilik tarmog'i ham katta salohiyatga ega. Lekin bundan oqilona foydalanilmayapti. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, yurtimizda yiliga 21 million tonnadan ortiq meva-sabzavot yetishtiriladi. Lekin, ularning bor-yo'g'i 1,5 million tonnasi eksport qilinadi. Chunki tashqi bozorlarda raqobatbardosh bo'lgan mahsulot yetishtirmaymiz. Bog' va tokzorlarda hosildorlik juda past. Masalan, xorijiy davlatlarda bir gektar intensiv bog'dan 70-100 tonna, ayrim mevalardan 130 tonnagacha hosil olinsa, yurtimizda bir gektardan 10-30 tonna, an'anaviy bog'-tokzorlarda esa 4-5 tonna mahsulot olinadi. Mahsulotni saralash, qadoqlash, qayta ishlash va eksport qilish bo'yicha 31 ta agrologistika markazi tashkil etilgan.

Respublikada faoliyat yuritayotgan meva-sabzavot klasterlari

№	Hududlar	Meva-sabzavot klasterlari				
		soni	Beriktirilgan yer maydoni	shundan		
				Klasterda (gektar)	Ferma xo'jaligida	
					soni	maydoni
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	26	12084	3966	1057	8118
2	Andijon viloyati	24	14864	1631	1872	13233
3	Buxora viloyati	12	29686	6600	3065	23087
4	Jizzaj viloyati	13	15528	5247	1134	10281
5	Qashqadaryo viloyati	31	17403	2035	2613	15368
6	Navoiy viloyati	9	3979	1742	119	2237
7	Namangan viloyati	17	20167	3595	1220	16572
8	Samarqand viloyati	15	23157	2895	2759	20262
9	Surxondaryo viloyati	19	8210	1972	536	6238
10	Sirdaryo viloyati	6	2847	2717	111	130
11	Toshkent viloyati	28	20823	5914	1224	14909
12	Farg'ona viloyati	31	24723	2205	4365	22518
13	Xorazm viloyati	18	12675	730	1368	11945
	Jami	249	206147	41250	21443	164898

Izoh: Statistik ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tuzildi.

Lekin aylanma mablag'lar yetishmasligi va doimiy mahsulot yo'qligi oqibatida ularning aksariyati mavsumiy ishlab, mavjud quvvatlardan bor-yo'g'i 10-15 foiz foydalanmoqda, xolos. Jadval ma'lumotlarini tahlil qiladigan bo'lsak, mamlakatimizda hududlar kesimida meva-sabzavotchilik klaster sonini hamda ularga beriktirilgan yer maydonining ulushini ko'rishimiz mumkin. Birgina Toshkent viloyatining o'zida 28 ta meva-sabzavot klasteri mavjud bo'lib, ularga beriktirilgan yer maydoni 20823 ming gektarni tashkil qiladi. Ferma xo'jaligiga ajratilgan yer maydoni 14909 ming gektarni tashkil qiladi. Tabiiy iqlim sharoiti va ixtisoslashuvidan kelib chiqib viloyatlar kesimida Qashqadaryo va Farg'ona viloyatlarida klasterlar 31tani tashkil etgan bo'lsa, Navoiy va Sirdaryo viloyatlarida 6-9 tagacha klasterlarni tashkil etib turibdi. Bu jadval ma'lumotlariga tayangan holda yana shuni aytish mumkinki, sohada bugungi kunda marketing yo'qligi, jahon bozoridagi holat o'rganilmasligi oqibatida eksport talablariga javob beradigan mahsulotlar yetarli miqdorda yetishtirilmayapti. Dehqon, qayta ishlovchi va eksportchi korxonalar o'rtasida tizimli hamkorlik yo'lga qo'yilmagan. Mirishkor ekinlarni o'z bilganicha joylashtirib, yetishtirilgan mahsulotini sota olmayapti, eksportyor esa meva-sabzavot qidirib yuribdi. Bu xorijlik xaridorlar bilan uzoq muddatli hamkorlik qilishga salbiy ta'sir etadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, mamlakatimizda jami 249 meva-sabzavot klaster faoliyat ko'rsatib kelib, ularning yer maydoni, mahsulot ishlab chiqarish, meva-sabzavot klasterlari joylashtirilgan hududlarni qamrab olganlik darajasini, birlashtirilgan fermerlar sonidan kelib chiqib, shuni aytish mumkinki islohatlar o'z natijasini berib kelmoqda. Bugungi kunda dehqonlarga moddiy resurslar va avans mablag'larini o'z vaqtida yetkazib berish, samaradorligi past bog'-rog'larni yangilash, hosildorlikni oshirish klasterlarning asosiy vazifasi bo'lishi kerak. Sababi rag'batlantirish bu dehqon va fermerlarga katta kuch hamda ishlash uchun turtki bo'ladi.

Foydanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 15-dekabr PQ-52 sonli "Meva-sabzavotchilik sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, tarmoqda klaster va kooperatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida qarori
2. "Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori 04.12.2021 yildagi 733-son
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni "Paxta to'qimachilik klasterlari faoliyatini tartibga solish chora tadbirlari to'g'risida"gi 16.11.2021 yildagi PF-14 son
4. Murtazo Axmedovich Rahmatovning "Yangi O'zbekiston Uchinchi Renessans ostonasida" T: "Zamin nashr" 2021, 212b
5. M.A. Rahmatov, B.Z. Zaripovlar "Klaster-integratsiya innovatsiya va iqtisodiy o'sish" risolasi T: "Zamin nashr" 2018
6. www.Lex.uz
7. www.Stat.uz
8. <https://uza.uz/uz/posts/meva-sabzavotchilik-klasterlari-tashkil-etish-choralari-belg-09-12-2019>

ENSURING THE WELL-BEING OF THE POPULATION THROUGH SUSTAINABLE ECONOMIC GROWTH

Karimov Islombek Mizrobovich

Master Of Business Administration - Level 2

Kimyo International University in Tashkent

Ashurova Z.O.

PhD, Management Engineering

The following key ideas underpin ensuring population well-being through sustainable economic growth: achieving upper-middle income status through sustainable economic development; developing an education, healthcare, and social protection system that fully satisfies local demand and international standards; fostering a population-friendly environment; creating a just and modern state that serves the people; and ensuring the s. Up until 2030, the intentional realization of the country's aims and objectives for sustainable development will be supported by the appropriate framework established by the legislative, legal, institutional, and economic framework adopted in 2017–2021 [1].